

MATNNI O'QIB TUSHUNISHDA BADIY MATN NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Saparbayeva Indira Shadibekovna
Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI 1-kurs
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim o'zga tillarda olib boriladigan sinflarda o'quvchilarga o'zbek tilini o'qitishda adabiy-badiiy matnlardan foydalangan holda matnni o'qib tushunish masalalari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Matn, tahlil, o'qib tushunish, ko'nikma, badiiy matn, idrok qilish, milliy madaniyat.

Аннотация. В данной статье говорится о вопросах чтения и понимания текста с использованием художественных текстов при обучении узбекскому языку учащихся в классах, где обучение ведется на других языках.

Ключевые слова. Текст, анализ, понимание прочитанного, умение, художественный текст, восприятие, национальная культура.

Abstract. This article discusses the issues of reading and understanding text using fiction texts when teaching Uzbek to students in classes where instruction is conducted in other languages.

Keywords. Text, analysis, reading comprehension, skills, artistic text, perception, national culture.

O'qib tushunish – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Bu jarayon respublikamizdagi barcha umumta'lim maktablarda o'zbek tilini o'rganish barobarida turlicha ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, ta'lim o'zga tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili grammatikasini o'zlashtirish jarayonida qardosh millat vakillari turlicha qiyinchiliklarga duch kelishadi. O'quvchilardagi bu kabi muammolar talaffuzda va yozish jarayonida yuzaga keladi. Biroq matn ustidagi topshiriqlarni bajarishda, aynan matnni o'qib tushunish davomida o'quvchilarning yosh jihatiga e'tibor berish maqsadga muvofiq. Chunki o'quvchilar matnni o'zlashtirish, o'qilganlarni tahlilga tortish asnosida uning mazmuni, undagi yetakchi fikrlar ahamiyatini ham anglab boradilar.

O'zbek tili darslarida turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy-estetik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi. Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini

tushunib yetishishlariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir. [Qosimova K, Matchonov S, G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh, Sariyev Sh, 2009:69].

O'zbek tilini o'zga til vakillariga o'rgatishda o'qituvchidan ta'lim jarayonini o'zga tillar va madaniyatlar sohasidagi yaxlit tizimli yondashuv asosida modellashtirish uchun zarur darajadagi kompetentlikka ega bo'lish talab etiladi. U nafaqat o'zbek tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini mukammal egallagan bo'lishi, balki ularning asosida yotgan qonuniyatlar mohiyatini anglashi, ularning manbasi va rivojlanishi istiqbollari ko'ra bilishi lozim. [Asilova G, Qarayeva B, 2023:64]. Ikkinchi tilni o'rgatishning bosh maqsadi – til tizimini o'rganishdan ham ko'ra (lingvistik kompetensiya), ko'proq muloqot layoqatiga ega bo'lishdir, ya'ni insonning o'rganilayotgan til vositalari asosida u yoki bu faoliyat doirasida nutqiy muloqotni olib borishga tayyorligidir. Muloqotga kirisha olish layoqati asosida tilga doir bilimlar, nutqiy ko'nikma va malakalar yig'indisi turadi. Bularning barchasi darslar jarayonida matnlar ustida ishlash asnosida shakllantiriladi va o'rganiladi. [A. H. Щукин 2011:155]. Ta'lim o'zga tillarda olib boriladigan maktab o'quvchilariga o'zbek tilini o'qitish davomida shu tilidagi adabiy-badiiy matnlardan foydalanish orqali o'zbek xalqining tarixi, madaniyati, milliyligi, tili va dini haqida yanada ko'proq tushunchaga ega bo'lishadi. Globallashuv jarayonlari jadallashayotgan bir paytda milliylik ruhi aks etgan badiiy matnlar ustida ishlash maqsadga muvofiq.

Adabiy o'qishni tashkil etish orqali o'quvchilarning o'zbek tilidagi lug'at boyligini oshirish, o'zbek adabiy tilining me'yorlarini singdirish, ularda Vatanga, xalqiga, el-yurtiga muhabbatli, sadoqatli bo'lish tuyg'ularini singdirish ko'zda tutiladi. O'zbek tili ta'limida adabiy o'qish materiallarining berib borilishi boshqa millat vakillarining lug'at boyligini oshirish, mavzuga doir faol leksik-grammatik minimumni mustahkamlash va ayni paytda, nofaol leksik-grammatik minimum zahirasi to'plab borishga yordam beradi. Haqiqatan ham, adabiy o'qish materiallari tili o'rganilayotgan mamlakat, til sohiblarining hayoti, madaniy-ma'naviy qarashlari, milliy xususiyatlari bilan tanishish imkoniyatini beruvchi, o'quvchilarda umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarini shakllantirish vositasi hamdir. Aynan yuqori ta'lim bosqichlarida adabiy o'qishni kuchaytirilishi, o'quvchilarni adabiy asarlarni asliyatida mustaqil o'qishlar til o'rganishda muhim o'rin tutadi. O'zbek tili darslarida adabiy o'qish materiallari o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi: o'quvchilar nutqiga faol leksik-grammatik minimum bilan bir qatorda nofaol minimumni ham kiritib borish va shu orqali o'quvchilarning so'z boyligini oshirish; o'qilgan adabiy

asarlarni qayta hikoyalash orqali rusiyzabon yoki qardosh millatga mansub o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish; asarlardan parchalarni ifodali o‘qitish, she‘rlarni yod aytirish orqali o‘zbekcha talaffuzini yaxshilash; asar matnidan mavzuga oid nutqiy konstruksiyalarni aniqlash va tahlil qilish orqali egallangan bilimlarni mustahkamlash va ularning amaliy qo‘llanishini o‘rgatish; o‘zbek tilining boy leksik va uslubiy imkoniyatlarini ko‘rsatishi orqali ularni o‘zbek tiliga qiziqtirish; o‘zbek xalqining madaniy-adabiy merosi, buyuk namoyandalari bilan yaqindan tanishtirish; o‘qilgan asarlardagi qahramonlarga tavsif berish orqali o‘zbek xalqiga xos xususiyatlari, boy tariximiz, xalqimizning yuqori madaniy saviyasi, milliy-ma‘naviy qadriyatlarini, urf-odatlarini bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi. [Muhitdinova X, 2023:116-117].

O‘zbek tilini o‘zga til vakillariga o‘qitish jarayonida, adabiy matnlarni o‘qib tushunish topshiriqlari ustida ishlash barobarida, o‘quvchilar badiiy matndan o‘zi uchun ruhiy oziq olish bilan birga o‘zbek tili grammatikasi orqali kommunikativ-nutqiy, leksik-grammatik materialni ma‘lum bir tizim asosida o‘rganishga, imlo qoidalarini o‘rganishga, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikma va malakalarini chuqurlashtirishga, lug‘atlardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga, matn bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga, so‘z boyligi va nutqiy malakasini oshirishga, o‘zbek xalqining milliy-madaniy o‘ziga xos jihatlariga oid bilimlarini kengaytirishga, erkin fikrlashga, mustaqil mushohada qilishga, nutq madaniyati borasida asosiy zaruriy bilimlarni egallashga erishadilar.

Masalan, 11-sinf O‘zbek tili darsligining 2020-yilgi nashri, 69-70-betlarida Po‘lat Mo‘minning “Uzr so‘rayman” nomli she‘rining matni berilgan:

Ancha yoshga borsam-da hatto
Yoshligimda qilganman xato –
Qarzim borday go‘yo birovda,
Vijdonimni etar bezovta.
Hammasini eslab bahuzur
Ta‘zim bilan so‘rayman uzr.

Bir kun menga buyurishdi ish,
“Voy-voy jonim, og‘riyapti tish”,
Deya ko‘zni qilgan edim lo‘q.
O‘sha tishim tushgan, hozir yo‘q.
Yolg‘onimdan ko‘nglim behuzur,
Bo‘ynim egib, so‘rayman uzr ...

Ushbu she‘riy matn ustida quyidagi topshiriqlar berilgan: 1. She‘rni o‘qib, mazmunini so‘zlab bering. 2. Shoir nima uchun uzr so‘rayapti? 3 ta sababini ko‘rsating. 3. Shoir necha marta xato qilgan ekan? Xatolarini ko‘rsating. Balki bu sizning xatolaringizdir? 4. She‘rda ajratib ko‘rsatilgan misralarni o‘qing. Eslab ko‘ring-chi, sizda ham shunga o‘xshash voqealar bo‘lganmi? 5. Shoirning uzr so‘rashini qanday baholaysiz? 6. Siz xato qilib qo‘ysangiz aybingizni tan olasizmi? [Muxitdinova X, Tolipova F, Nuriddinova D, Abduraimov Sh, Eshboyeva R,

2020:69-70]. Haqiqatdan ham, bu she’riy matn orqali yoshlikda o‘zining odobsizligi, dangasaligi tufayli boshqalar ko‘z o‘ngida “yomon” taassurot qoldirgan qahramonning qarigan chog‘idagi pushaymonligi aks ettirilgan. O‘quvchilar bu she’riy matnni o‘qib tushunish davomida o‘zlari uchun butun hayoti davomida saboq bo‘ladigan voqealarni guvohi bo‘lishadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili fani o‘qituvchisi o‘zga tilli sinflarda ta’lim oluvchi o‘quvchilarga o‘zbek tili fani orqali o‘zbek xalqining durdona asarlari, qo‘shiqlari, she’rlari va ibratomuz hikoyalari ham mavjudligini, va ularni o‘qitib his qildirishlari lozim. Buning uchun biz ularga yaxshi insoniy fazilatlarni targ‘ib qilishga, urushni, zo‘ravonlikni qoralab, tinchlik, xalqlarning osoyishta hayoti hamda go‘zallikni targ‘ib qilishga undaydigan kalit bo‘lib xizmat qilishini tushuntira olishimiz lozimdir. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqida ta’kidlaganidek: “Yaxshilik, do‘stlik, hamjihatlik, mehr-shafqat va insonparvarlik dunyoni qutqaradi”. Bu jumla nafaqat O‘zbekistonda yashaydigan boshqa millat vakillari o‘rtasida, balki Yer yuzidagi jamiki xalqlarning ham milliyligini, madaniyatini, qadr-qimmatini, bir-biriga bo‘lgan hurmatni ulug‘laydigan ezgu fikr desak adashmagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asilova, G.A., Qarayeva, B.X. 2023. “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari”. O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy flogiya masalalari. 64-bet.
2. K. Qosimova, S. Matchonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariyev. 2009. “Ona tili o‘qitish metodikasi” 69-bet.
3. X. Muxitdinova, 2023, “O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish” 116-117-bet.
4. A. H. Щукин, 2011 г. “Методика обучения речевому общению. На иностранном языке” 155-bet.
5. X. Muxitdinova, F. Tolipova, D. Nuriddinova, Sh. Abduraimov, R. Eshboyeva, 2020. 11-sinf “O‘zbek tili” darsligi, 69-70-bet.
6. Shoxista Bo‘ranova, Indira Saparbayeva. “O‘zbek tili darslarida matnni o‘qib tushunishga qaratilgan mashq va topshiriqlar ustida ishlash.”, “O‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi taraqqiyoti, xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 403-406-bet.